Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha tarmoq kengashi

# Bank va mikromoliyaviy faoliyat

## TARMOQ MALAKA RAMKASI

TOSHKENT - 2026

“Bank va mikromoliyaviy faoliyat” tarmoq malaka ramkasi 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasi shakli” va Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga asosan Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

© Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti,
Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy
malakalarni rivojlantirish bo‘yicha
tarmoq kengashi, 2026.

# TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

UZ-TMR-2026-T1.0-012

## 1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu Tarmoq malaka ramkasi Oʻzbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi hamda Mashgʻulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) va Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga (IFUT-2.1) muvofiq ishlab chiqilgan boʻlib, bank va mikromoliyaviy faoliyat sohasiga oid malaka darajalarining yagona tizimini belgilaydi.

Tarmoq malaka ramkasi bank va mikromoliyaviy faoliyat sohasidagi mutaxassislar uchun belgilangan malaka darajalarini yagona tizim asosida tasniflaydi, shuningdek kasb standartlarini ishlab chiqish, sohada malakani baholash hamda mutaxassislarning malakasini milliy va xalqaro darajada tan olish tizimlari uchun metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Bank va mikromoliyaviy faoliyat yoʻnalishi boʻyicha Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi — tarmoqda malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini shakllantirish, shuningdek tarmoqning strategik rivojlanish ustuvorliklarini inobatga olgan holda, Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qoʻyiladigan yagona talablarni belgilashdan iborat.

Shuningdek, tarmoq malaka ramkasi tarmoqlararo kompetensiyalarni hamda turdosh mashgʻulotlar (malakalar) turlarini hisobga olgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari boʻyicha xaritalashni taʼminlaydi.

Tarmoq malaka ramkasining asosiy vazifasi — bank va mikromoliyaviy faoliyat sohasida kompleks faoliyat turlarini qamrab olgan kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun zamonaviy va istiqbolli texnologiyalarni inobatga olgan holda ishchi-xodimlarning funksional harakatlari, koʻnikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qoʻyiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qoʻllaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur boʻladigan, oʻrganilgan va oʻzlashtirilgan maʼlumotlar;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) boʻyicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini oʻz ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun moʻljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat koʻrsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

informal taʼlim – aniq maqsadga yoʻnaltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy taʼlimdan koʻra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi oʻquv faoliyatini oʻz ichiga olgan taʼlim shakli;

kasb – koʻnikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qoʻyiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni oʻz ichiga olgan muayyan kasb toʻgʻrisidagi tizimlashtirilgan maʼlumotlarni oʻz ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

koʻnikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan oʻzaro taʼsirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy taʼlim – taʼlim xizmatlari taqdim etilishini taʼminlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yoʻnaltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida oʻqitishdagi rasmiy taʼlimga qoʻshimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning oʻrtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi.

Bank – bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, toʻlovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablagʻlarini jalb etish, oʻz nomidan kreditlar berish boʻyicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti boʻlgan yuridik shaxs.

“Respublika inkassatsiya xizmati” masʼuliyati cheklangan jamiyati – Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki toʻgʻrisida”gi qonuniga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan.

“Qimmatli qogʻozlar markaziy depozitariysi” Aksiyadorlik jamiyati – Oʻzbekiston Respublikasi depozitariy tizimida qimmatli qogʻozlarni saqlash, ularning huquqlari va harakatini hisobga olishning yagona tizimini taʼminlovchi tashkilot.

“Garov reyestri” mas’uliyati cheklangan jamiyati – qarzdorlarning majburiyatlari bajarilishini ta’minlash vositasi sifatida berib qo‘ygan mol-mulkiga nisbatan kreditorlarning huquqlari to‘g‘risidagi, shuningdek qarzdorning mol-mulkni tasarruf etish va undan foydalanishga doir huquqlariga qonunga muvofiq qo‘yilgan cheklov hamda qarzdor o‘z majburiyatlari lozim darajada bajarilishini ta’minlashi bilan bog‘liq boshqa talablar haqidagi yozuvlarni (keyingi o‘rinlarda yozuvlar) o‘z ichiga olgan ma’lumotlarning yagona axborot bazasini yuritish bilan ifodalanadi.

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘RQ-582-sonli qonuni (yangi tahriri);

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-580-sonli qonuni (yangi tahriri);

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘RQ-573-sonli qonuni (yangi tahriri);

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-578-sonli qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-oktabrdagi “Bank-moliya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4503 – sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ-369-sonli qarori.

Asosiy qisqartmalar.

MMR– Milliy malakalar ramkasi;

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT-2.1 – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori.

## 2. Tarmoq malakalar ramkasining pasporti

Bank va mikromoliyaviy faoliyat sohasi – bu pul mablag‘larini saqlash va qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan, o‘z mijozlariga kreditlar va boshqa xizmatlarni

taqdim etadigan banklar va boshqa moliya institutlari toʻplami boʻlib, Bank tizimi iqtisodiy infratuzilmaning asosiy elementi boʻlgan, moliyaviy operatsiyalarning uzluksiz ishlashini taʼminlovchi tarmoq hisoblanadi.

Bank va mikromoliyaviy faoliyat sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

K – Moliyaviy va Sugʻurta faoliyati;

M – Professional, Ilmiy va texnik faoliyat;

N – Boshqarish boʻyicha faoliyat va yordamchi xizmatlar koʻrsatish.

Oʻzbekiston Respublikasida Bank sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

| T/r | Seksiya | Boʻlim | Guruh | Sinf | Kichik sinf |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | K seksiya – Moliyaviy va Sugʻurta sohasidagi faoliyat | 64 Sugʻurtalash va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar | 64.1 Pul-kredit vositachiligi | 64.11 Markaziy bank faoliyati | 64.11.0 Markaziy bank faoliyati |
| | | | | 64.19-Pul-kredit vositachiligining boshqa turlari | 64.19.0 Pul-kredit vositachiligining boshqa turlari |
| 2 | | 64 Sugʻurtalash va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar | 64.9 Sugʻurtalash va nafaqa jamgʻarmalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari | 64.91 Moliyaviy lizing | 64.91.0 Moliyaviy lizing |
| | | | | 64.92 Kredit berishning boshqa turlari | 64.92.0 Kredit berishning boshqa turlari |
| | | | | 64.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sugʻurtalash va nafaqa jamgʻarmalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari | 64.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sugʻurtalash va nafaqa jamgʻarmalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari |
| 3 | M seksiya – Professional, Ilmiy va texnik faoliyat | 69 Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi faoliyat | 69.2 Buxgalterlik hisobi va audit sohasidagi faoliyat; soliq solish boʻyicha maslahat berish | 69.20 Buxgalterlik hisobi va audit sohasidagi faoliyat; soliq solish boʻyicha maslahat berish | 69.20.1 Auditorlik faoliyati 69.20.2 Buxgalterlik hisobi sohasidagi faoliyat |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4 | N seksiya – Boshqarish boʻyicha faoliyat va yordamchi xizmatlar koʻrsatish | 82 Maʼmuriy-boshqaruv, xoʻjalik va boshqa yordamchi xizmat koʻrsatish sohasidagi faoliyat | 82.2 Axborot-maʼlumotnoma xizmati faoliyati | 82.20 Axborot-maʼlumotnoma xizmati faoliyati | 82.20.0 Axborot-maʼlumotnoma xizmati faoliyati |

TMR quyidagi kasbiy guruhlar va mashgʻulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

| T/r | Mashgʻulot guruhi kodi | Mashgʻulot guruhi nomi |
|---|---|---|
| 1. | 11200 | Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari |
| 2. | 12111 | Moliyaviy-iqtisodiy faoliyat sohasidagi tarkibiy boʻlinmalar rahbarlari |
| 3. | 13490 | Boshqa mashgʻulot guruhlarga kiritilmagan ixtisoslashtirilgan xizmat koʻrsatish sohasidagi rahbarlar, b.g.k. |
| 4. | 14390 | Boshqa mashgʻulotlar guruhlariga kiritilmagan boshqa soha xizmatlari rahbarlari, b.g.k. |
| 5. | 21202 | Matematiklar |
| 6. | 21203 | Statistiklar |
| 7. | 24111 | Auditorlar |
| 8. | 24112 | Buxgalterlar |
| 9. | 24121 | Moliya va investitsiya masalalari boʻyicha professional-mutaxassislar |
| 10. | 24122 | Korporativ mijozlar bilan ishlash boʻyicha professional-mutaxassislar |
| 11. | 24131 | Moliyaviy tahlilchilar |
| 12. | 24132 | Barqaror moliya va yashil investitsiyalar tahlilchilari |
| 13. | 24133 | Qimmatli qogʻozlar boʻyicha professional-mutaxassislar |
| 14. | 24134 | Kredit tahlilchilari |
| 15. | 24139 | Boshqa mashgʻulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy tahlilchilar, b.g.k. |
| 16. | 24212 | Biznes yuritish boʻyicha maslahatchi |
| 17. | 24223 | Xalqaro aloqalar boʻyicha professional-mutaxassislar |
| 18. | 24311 | Marketing va bozor tadqiqotlari boʻyicha tahlilchilar |
| 19. | 26311 | Iqtisodchilar (umumiy)ga |
| 20. | 33120 | Kredit boʻyicha agent |
| 21. | 33130 | Buxgalteriya hisobi boʻyicha yordamchi xodimlar |
| 22. | 33140 | Statistik va matematik hisoblarni bajarish boʻyicha mutaxassislar |
| 23. | 42111 | Bank kassirlari |
| 24. | 42119 | Boshqa mashgʻulotlar guruhlariga kiritilmagan bank kassirlari va turdosh sohalar xodimlari, b.g.k. |
| 25. | 42220 | Mijozlar bilan aloqalar markazi maʼlumot xodimi |
| 26. | 42119 | Boshqa mashgʻulotlar guruhlariga kiritilmagan bank kassirlari va turdosh sohalar xodimlari, b.g.k. |
| 27. | 43111 | Buxgalteriya operatsiyalari va hisobi boʻyicha xodimlar |
| 28. | 43112 | Audit boʻyicha xodimlar |

| | | |
|---|---|---|
| 29. | 43119 | Boshqa mashgʻulotlar guruhlariga kiritilmagan buxgalteriya operatsiyalari va hisobi boʻyicha xodimlar, b.g.k. |
| 30. | 43122 | Statistik maʼlumotlarini qayta ishlash va hisoblash xodimlari |
| 31. | 43129 | Boshqa mashgʻulotlar guruhlariga kiritilmagan statistik, moliyaviy va sugʻurta maʼlumotlarini qayta ishlash va hisoblash xodimlari, b.g.k. |
| 32. | 54190 | Boshqa mashgʻulot guruhlariga kiritilmagan fuqarolar va mulkni himoya qiladigan xizmatlar xodimlari, b.g.k. |

## 3. Tarmoq tahlili

Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga xos boʻlgan ikki pogʻonali bank tizimi shakllantirildi. Oʻzbekiston Respublikasining bank tizimi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankidan va banklardan iboratdir.

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit va valyuta siyosatini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi. Shuningdek mamlakatda banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi, bank va toʻlov tizimlarining barqaror faoliyat koʻrsatishini taʼminlaydi.

Banklar hisobvaraqlar ochish va yuritish, toʻlovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablagʻlarini jalb etish, oʻz nomidan kreditlar berish boʻyicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti boʻlgan yuridik shaxsdir.

Tijorat banklari mintaqaviy va mahalliy boshqaruv idoralari bilan yaqindan hamkorlik qilib, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishda yordam koʻrsatib kelmoqdalar. Natijada ishlab chiqarish jarayonlari tiklanib, yangi korxonalar tashkil etilmoqda, qishloq hududlarida zamonaviy tusdagi maʼmuriy va tijorat inshootlari va uy-joylari qad koʻtarmoqda, eng muhimi, insonlarning mehnat bilan bandligi taʼminlanmoqda.

Shuningdek, bank tizimining rivojlanishi nafaqat mamlakat iqtisodiy tizimining rivojlanishi, balki jamiyat va mamlakat aholisi farovonligining oshishi, pirovardida, oddiy bir fuqaroning turmush sharoiti yaxshilanishiga olib keladi. Bugungi kunda tijorat banklari muassasalarining keng tarmoqqa ega boʻlayotganligi, oʻz navbatida, mijozlarga sifatli bank xizmatlari koʻrsatish, ularning bank xizmatiga boʻlgan ehtiyojlarini toʻliq qondirish va tijorat banklari oʻrtasidagi raqobat muhiti kuchayishiga imkon bermoqda.

Markaziy bankning makroprudensial siyosatida asosiy eʼtibor banklarning moliyaviy barqarorligini taʼminlash, banklarning likvidlilik va kapital buferlarini shakllantirish orqali yuzaga kelishi mumkin boʻlgan xatarlarga bardoshliligini oshirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash, kreditlash amaliyotlaridagi mavjud zaifliklarni bartaraf qilish, yirik qarzdorlarning moliyaviy holatini tahlil qilib borish masalalariga qaratilmoqda.

Bank tizimida likvidlik holati tahlili va yuzaga kelishi mumkin boʻlgan likvidlilik risklari va ularning banklar moliyaviy barqarorligiga taʼsiri yuzasidan “asosiy” va “xatarli” ssenariylarda stress-test oʻtkazildi.

Banklarning kredit portfellari sifatini yaxshilash, kreditlarning qaytmaslik xatari oldini olish maqsadida banklar kredit portfellari muntazam ravishda banklar, hududlar, sohalar va segmentlar kesimidagi tahlillar takomillashtirilmoqda.

Shuningdek, banklarning kapital buferlarini shakllantirish hamda ustav kapitali miqdorini qonun talablari doirasida muvofiqlashtirish choralari koʻrilib, 14 ta bankning ustav kapitali miqdori 500 mlrd soʻmga yetkazildi.

Tavakkalchilikka asoslangan bank nazorati kuchaytirilib, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamgʻarmasi koʻmagida Moliyaviy sektorni baholash dasturi *(FSAP)* oʻtkazildi va banklar faoliyatini nazorat qilish tizimi Bazel talablariga muvofiqligi baholanmoqda.

Bank tizimi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega yirik tavakkalchiliklarni boshqarish va ularning ehtimoliy taʼsirini baholab borish maqsadida bank tizimi kredit portfelidagi TOP-50 ta qarzdorlarning banklar moliyaviy holatiga taʼsirini oʻrganish amaliyoti joriy etilgan.

Hisobot yilida, tijorat banklari kapitalining monandligiga qoʻyiladigan talablarga tegishli oʻzgartirishlar kiritish orqali banklarning oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlarini kreditlash imkoniyatlari kengaytirish, bunda, mazkur qarz oluvchilarga banklar tomonidan mikromoliyalashtirish faoliyati doirasida koʻrsatilgan xizmatlar boʻyicha tavakkalchilik darajalari 100 foizdan 75 foizgacha pasaytirildi.

Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari, avtokreditlar va mikroqarzlarning sifat jihatdan davriy oʻzgarishi oʻrganilib, kreditlarning risk darajasini baholash va yuzaga kelishi mumkin boʻlgan potensial muammoli kreditlarni aniqlash choralari koʻrib borilmoqda.

Mazkur oʻrganishlar davomida ayrim banklar kredit portfellarida jismoniy shaxslarga ajratilayotgan maʼlum bir turdagi kreditlar konsentratsiyasi oshib ketganligini inobatga olgan holda bank tizimida kredit xatarlarini oldini olish, banklar kredit portfellari tarkibini diversifikatsiya qilish choralari belgilandi.

Xususan, aholiga ajratilayotgan mikroqarzlarning konsentratsiyasi yuqori boʻlgan banklarga nisbatan xatarlarni oldini olish boʻyicha choralar koʻrib borilishi, ushbu kredit mahsulotidan ortgan mablagʻlar ustuvor ravishda kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishga yoʻnaltirilishi belgilab olingan.

Bundan tashqari, kapital monandligini hisoblashda tavakkalchilik darajalari jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari va avtokreditlar boʻyicha qarz yuki koʻrsatkichi (DSTI) va kredit summasining taʼminot (garov) summasiga nisbati (LTV) asosida, boshqa kreditlar boʻyicha qarz yuki koʻrsatkichi (DSTI) asosida oʻrnatilishi belgilandi.

Qarzdorlarga yoʻnaltirilgan makroprudensial siyosat vositalarini takomillashtirish doirasida aholi qarz yuki darajasining oshib ketishini oldini olish, shuningdek banklar, mikromoliya tashkilotlari va lombardlarda kredit

xatarlarini kamaytirish maqsadida qarzga xizmat ko‘rsatishni daromadga nisbati cheklovi 50 foizgacha pasaytirildi.

Shuningdek, aholi qarz yuki bilan bog‘liq xatarlarning ortishini jilovlash maqsadida istisno tariqasida, banklar tomonidan ajratiladigan kreditlarga yuqoriroq tavakkalchilik darajalarini belgilash amaliyoti joriy etilmoqda.

Tizimda mikromoliyalashtirish sohasini takomillashtirish va bunda, tadbirkorlik subyektlarining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, hududlarda moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabni o‘z vaqtida qondirish borasida zarur choralar ko‘rib borilmoqda. Jumladan, “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi yangi Qonun loyihasi qabul qilinib, unda jismoniy shaxslarga ajratiladigan mikroqarzning eng ko‘p miqdorini 50 mln so‘mdan 100 mln so‘mgacha oshirildi.

Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning ko‘char aktivlarga asoslangan instrumentlarini rivojlantirish orqali kichik va o‘rta biznes subyektlarining aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda moliyalashtirish operatsiyalaridan foydalanishning yangi mexanizmi – faktoring tizimi joriy etilib, tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklariga tashrif buyurmagan holda faktoring xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratish maqsadida elektron raqamli faktoring platformalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

To‘lov tizimlari ishlashining uzluksizligi va infratuzilmasini yaxshilash borasidagi faoliyatda asosiy e’tibor naqd pulsiz hisob-kitoblar ko‘lamini kengaytirishga va bunda, ushbu tizimlar faoliyatiga xavf solayotgan kibertahdidlar va firibgarliklarni oldini olishga qaratilmoqda.

Tizimda raqamli texnologiyalari infratuzilmalarini rivojlantirish va faoliyatni raqamlashtirish borasida ham muhim choralar ko‘rib borilib, ma’lumotlar almashinishida integratsiyalashuvni jadallashtirish, zamonaviy va yuqori texnologik yechimlarni tatbiq etish bo‘yicha muayyan loyiha va tashabbuslar amalga oshirildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-apreldagi “Tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha aktivlar repatriatsiyasi va soliq majburiyatlarining bajarilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 251-sonli qaroriga asosan qo‘mitaning “E-kontrakt” axborot tizimi bilan tijorat banklari axborot tizimlari integratsiya qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining “Masofaviy audit” avtomatlashtirilgan axborot tizimi va Markaziy bank axborot tizimlari o‘rtasida axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yildi.

Markaziy bank mutaxassislari uchun “Matrix BI” tizimi xarid qilinib, “Kredit axborotining davlat reyestri” ma’lumotlari bazasidan foydalanish va tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Bunda, hisobotlar va tahliliy ma’lumotlarni avtomatik ravishda shakllantirishni ta’minlovchi qo‘shimcha dasturiy modullar ishlab

chiqilib, “Matrix BI” dasturiga integratsiya qilindi va toʻliq foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, Markaziy bankning barcha axborot tizimi va maʼlumotlar bazalari maʼlumotlarini tahlil qilish, hisobotlarni shakllantirish va dashbordlar yaratish imkonini beruvchi Qlik Sense biznes-tahliliy vositasi orqali amalga oshirilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar isteʼmolchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish boʻyicha ilgʻor tajribalarni oʻrganish, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda ushbu mexanizmlarni takomillashtirish hamda banklarning murojaatlar bilan ishlash boʻyicha faoliyatini tartibga solish yoʻnalishlariga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Tijorat banklarida mijozlar murojaatlarini koʻrib chiqish va ular bilan ishlash tartibini takomillashtirish va banklarning bu sohada masʼuliyatini oshirish borasidagi tijorat banklarining faoliyatiga qoʻyiladigan minimal talablar takomillashtirib borilmoqda.

Mazkur yangi qoida va talablarning amaliyotga joriy etilishi isteʼmolchilarning murojaatlari sifatli va samarali koʻrib chiqilishiga hamda murojaatlarni umumlashtirgan holda tahlil qilinishi natijasida bankda isteʼmolchilarning eʼtirozini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash va ularni bartaraf etishga xizmat qildi.

Shuningdek, banklardagi omonatlarni himoya qilish, aholining moliyaviy savodxonligini hamda moliyaviy ommaboplikni oshirish kabi boshqa yoʻnalishlarda ham muhim ishlar davom ettirilmoqda.

Oʻzbekistonda moliyaviy sharoitlar yengillashdi va bank tizimida moliyaviy barqarorlik saqlanib qoldi. Bank va tashqi moliyaviy sektorlarda kuzatilgan ijobiy vaziyat, valyuta bozoridagi bosimning kamayishi hisobiga Oʻzbekiston moliyaviy sharoitlar indeksi ijobiy tomonga oʻzgarmoqda. Shuningdek, moliyaviy sikl indeksi hamda kreditning YaIMga nisbati tafovuti koʻrsatkichlari pasayish fazasini koʻrsatdi. 2024-yil yakuniga kelib, global miqyosda kuzatilgan noaniqliklar Oʻzbekiston moliyaviy sharoitlarni biroz qatʼiylashtirdi. Bank tizimining kapital monandlik koeffitsiyentlari belgilangan minimal talablardan yuqori darajada shakllanib, tizimning barqarorligini taʼminladi.

Bank tizimida moliyaviy stress holati yaxshilanib bormoqda. 2024-yil davomida pul bozoridagi holatning deyarli oʻzgarishsiz shakllangan sharoitida bank sektori va ichki valyuta bozoridagi ijobiy oʻzgarishlar umumiy moliyaviy stress indeksining pasayishiga sabab boʻldi. Ushbu indeks oʻzining oʻrtacha va bir standart chetlanish qiymatidan past shakllanmoqda.

Jismoniy shaxslar kreditlari qoldigʻi boʻyicha konsentratsiyalashuv darajasi past boʻlsa-da, ushbu kreditlar boʻyicha xatarlarning banklardagi moliyaviy yoʻqotishlariga taʼsiri ortib bormoqda. Chakana kreditlar qoldigʻi boʻyicha konsentratsiyalashuv darajasining pasayishi konsentratsiya meʼyorlari boʻyicha

kiritilgan makroprudensial choralarning samarasi bilan izohlash mumkin. Bunga qaramasdan, uy xoʻjaliklari sektorida kredit faolligi hamda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi oshib, bankdan qarz majburiyati mavjud aholi koʻlami kengayib bormoqda.

Aholining qarz majburiyatlarini bajarishi boʻyicha xavotirlar saqlanib qolmoqda. 2024-yilda jismoniy shaxslarning jami majburiyatlarni inobatga olgan holdagi umumiy qarz yuki darajasi oʻrtacha 34 foizni tashkil etgan. Bankdan qarz jalb etgan aholi orasida umumiy DSTI koʻrsatkichi 50 foizdan yuqori qarzdorlarga toʻgʻri keladigan kreditlar hajmining ulushi 40 foiz darajasida shakllandi.

Xatarli ssenariyda bank tizimi boʻyicha toʻlov qobiliyati makro stress-testi natijalari bank sektorida yoʻqotishlar yuzaga kelishi mumkinligini koʻrsatmoqda. 2027-yil yakunida bank tizimining I darajali asosiy va jami regulyativ kapitali monandlik koeffitsiyentlari mos ravishda 5,6 hamda 8,1 foizlargacha pasayib, oʻrnatilgan minimal talablardan pastda shakllanish ehtimollari taxmin qilinmoqda.

Likvidlilik makro stress-testi natijalari boʻyicha bank tizimida likvidlilik muammosi kutilmayotganligi namoyon boʻldi. Bank tizimi boʻyicha milliy valyutadagi aktivlar va majburiyatlarning muddatlar orasidagi nomutanosiblik pasaygan. 2025-yil yakuni boʻyicha sof pul kirimining jami va yuqori likvidli aktivlardagi ulushlari ijobiy shakllanishini kutilmoqda. Ayrim banklarda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan manfiy sof pul kirimi boʻyicha yetarlicha yuqori likvidli aktivlarning mavjudligi likvidlilik bilan bogʻliq xatarlarning tarqalish xavfini cheklaydi.

Banklarda depozitorlar boʻyicha konsentratsiya xavfi yuqori shakllangan. Jami depozitlar tarkibida eng yirik depozitorning ulushi koʻplab tijorat banklarida yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Eng yirik depozitorlar mablagʻlarining bankdan chiqib ketish farazi asosidagi stress-test natijalari bank tizimida likvidlilik bilan bogʻliq xavotirlar xavfi vujudga kelishi mumkinligini koʻrsatmoqda.

Uy-joylarning bozor va fundamental narxlari orasidagi tafovut qisqarmoqda. 2024-yilda uy-joylarning bozor narxi fundamental narxiga nisbatan 17 foizga yuqori shakllangan. Shuningdek, koʻchmas mulk bozorida faollik pasaygan. Banklar tomonidan ipoteka kredit ajratish standartlari esa qatʼiylashgan.

Makroprudensial choralar banklarning avtokredit segmentidagi kredit xatarini pasaytirdi. 2024-yilda avtokreditlar boʻyicha jismoniy shaxslarning qarz yuki holati yaxshilanib, avtokreditlar boʻyicha LTV taqsimotida ijobiy oʻzgarish kuzatildi. Shuningdek, avtomobil xaridi hajmlari muqobillashib, avtomobillarning bozor va fundamental narxlari orasidagi tafovut qisqargan.

Mikroqarzlar boʻyicha kredit xavfi ortmoqda.

Mikroqarz portfeli tarkibida muammoli kreditlar ulushi yuqori boʻlgan banklarda muammoli kreditlar uchun yaratilgan zaxiralar darajasining pastligi mikroqarzlar boʻyicha kredit xavfini oshirmoqda. Banklarning kredit portfelida jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlar miqdori hamda mikroqarz oluvchilar

soni yuqori sur’atlarda o‘smoqda. Jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlar qoldig‘i bo‘yicha konsentratsiyalashuv darajasi ham oshishda davom etmoqda.

Moliyaviy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xatarlar saqlanib qolmoqda. Bunday xatarlar qatoriga tashqi moliyalashtirish manbalarning qimmatlashuvi, uy-joylar narxlarining ortiqcha baholanishi, mikroqarzlarning yuqori sur’atlarda o‘sishi hamda kiberhujumlarning ortib borishini kiritish mumkin.

Moliyaviy zaifliklar xaritasi uy xo‘jaligi sektori va ko‘chmas mulk bozori bilan bog‘liq zaifliklar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda. Xususan, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga kredit ajratish amaliyoti ortib, aholining kredit majburiyatlari bo‘yicha qarz yuki holati bilan bog‘liq xavotirlar kuchaymoqda.

Chakana kreditlar bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarning banklardagi kredit yo‘qotishlariga ta’siri ortib bormoqda. Xususan, uy xo‘jaliklari sektorida kredit faolligi sezilarli tarzda oshib, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi ortib bormoqda. Bundan tashqari, jismoniy shaxslarning bank kreditlari bo‘yicha qarzga xizmat ko‘rsatish darajasi oshgan. Bu esa, uy xo‘jaligi sektorida xatarlarning to‘planib borishi va qarzdorlar moliyaviy holatining yomonlashishi oqibatida banklar kredit portfelida moliyaviy yo‘qotishlarning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ko‘chmas mulk bozorida uy-joy narxlardagi ehtimoliy tuzatishlar mamlakat real iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatish orqali tizimli xatarlarni yuzaga chiqarishi mumkin. 2024-yil yakuniga kelib, uy-joy narxlarining aholi ixtiyoridagi daromadga nisbati pasayganiga qaramay, o‘zining tarixiy yuqori qiymatiga yaqin shakllanmoqda. Shuningdek, ipoteka kreditlari qoldig‘i bo‘yicha leveraj ko‘rsatkichi biroz pasaygan bo‘lsa-da, uning yuqori darajasi saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024 yilning 16 dekabr kuni bo‘lib o‘tgan bank xizmatlari orqali mahallalarda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va 2025 yil uchun asosiy rejalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishida O‘zbekistondagi tumanlarda mahalla bankirlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Mazkur yig‘ilishda mahallalar darajasida hokimlar banklar bilan hamkorlikda ishlashi zarurligi qayd etilib, ular mahallalarda 4 ta tajribani qo‘llagan holda odamlar daromadini oshirish bo‘yicha birgalikda ishlaydigan tizim tashkil etildi.

Bunda tuman banklari mijozbay ishlab, tadbirkorlar loyihalariga ko‘maklashadi, ularning muammolarini joyida hal etadi, tuman hokimlari esa loyihani joy va infratuzilma bilan ta’minlash majburiyatini oladi.

Mahalla bankirlari mahallaning biznes imkoniyatlarini o‘rganadi, odamlar bilan gaplashib, ularning g‘oyalarini loyihalarga aylantiradi. Aholini kredit olish, qaytarish, biznes ochish, mahsulotini sotishga o‘rgatadi, loyihalarga hamrohlik qiladi.

Shuningdek, yana bir muhim bo‘lgan masala transformatsiya jarayonlari doirasida “yashil” moliyalashtirishni rag‘batlantirish, ekologik vaziyatni yaxshilash hamda hududlarni ko‘kalamzorlashtirish dasturlarida banklar faolligini oshirish

maqsadida aholi uchun quyosh fotoelektrik stansiyalari, quyosh suv isitgichlari, shamol generatorlari va boshqa qurilmalar sotib olish uchun “Green product kredit” mahsulotini yoʻlga qoʻyish. Kichik va oʻrta biznes subyektlari uchun esa, quyosh panellari oʻrnatish, elektromobillarni quvvatlash stansiyalari tashkil qilishga moʻljallangan, soddalashtirilgan shartlardagi “Green Energy Microloan kredit” mahsulotlari joriy qilish kabi yoʻnalishlar bank tizimi oldiga qoʻyilgan muhim vazifalarga aylanmoqda.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun raqamli bank va fintech kompaniyalari kirishiga yanada koʻproq imkoniyat yaratish, hamda banklarda xizmat koʻrsatish shoxobchalarini kengaytirish, bank xizmatlari koʻrsatishning muqobil usullarini joriy etish bilan isteʼmolchilarga qulaylik yaratish va bank xizmati tranzaksiya vaqti, narxini kamaytirish hamda mijozlar uchun firibgarlik xavfini kamaytirish va eng asosiysi aholini moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan ishlarni jadallashtirish orqali onlayn banking xizmatlarini takomillashtirish yoʻllari bilan moliyaviy xizmatlar sohasini yanada rivojlantirishga erishish mumkin.

Natijada qoʻshimcha ish oʻrinlarini yaratish, bandlikni oshirish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga kambagʻallikni qisqartirish imkoniyati yaratiladi.

Tijorat banklari tomonidan koʻrsatiladigan bank xizmatlarini aholining barcha qatlamlariga yetkazish, jumladan, bank xizmatlari koʻrsatish markazlari bilan oldin qamrab olinmagan hududlarda ixcham va bankning barcha xizmatlarini koʻrsatuvchi ofislar tarmogʻini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Jumladan, respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari soni 35 tani, shundan kapitalida davlat ulushi mavjud banklar – 9 tani, xususiy banklar – 20 tani hamda xorijiy bank kapitali ishtirokidagi banklar – tani, shuningdek, bir nafar mikromoliya bankni tashkil etadi.

Aholining bank xizmatlaridan foydalanish boʻyicha yanada qulayliklar yaratish maqsadida tijorat banklari filiallari – 696 taga, mini-banklar – 69 taga, bank xizmatlari koʻrsatish ofislari – 1 747 taga hamda tunu-kun “24/7” rejimida ishlaydigan bank shoxobchalari – 3 723 taga yetkazildi. Ushbu maqsadlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar doirasida bank xizmatlari koʻrsatish nuqtalari soni 13 761 taga yetkazilib, banklar tomonidan respublika hududlari boʻylab qoʻshimcha 286 ta bank xizmatlari koʻrsatish markazlari, ularning 88 tasi bank xizmatlari koʻrsatish markazlari faoliyati oldin qamrab olinmagan hududlarda tashkil etildi.

Shu bilan birga, yagona markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga ega boʻlgan, Qoraqalpogʻiston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida 14 ta hududiy bosh boshqarma hamda tasarrufdagi 5 ta tashkilotlardan tashkil topgan Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy bankida jami ikki mingdan koʻproq ishchi va mutaxassislar faoliyat yuritib kelmoqda, bu esa mazkur tarmoqda faoliyat yurituvchi kadrlarga boʻlgan ehtiyoj yanada ortishini koʻrsatmoqda.

Yuqorida qayd etilgan vazifalar mazkur tarmoqda faoliyat yurituvchi kadrlarga boʻlgan ehtiyoj yanada ortishini koʻrsatmoqda.

Jahon mehnat bozori tendensiyalari shuni ko‘rsatmoqdaki yaqin kelajakda ko‘pgina vazifalarni bajarish jadallik bilan sun’iy intellekt tomonidan amalga oshirishi kuzatilmoqda va shuning uchun texnologiya inson hayotining barcha sohalariga kiritiladi. Bu holat IT sohasida texnik fanlarga talab ortib borayotganidan dalolat beradi.

Texnologik taraqqiyot hayotning barcha sohalariga, birinchi navbatda, mehnat bozoriga ta’sir qiladi. Yangi kasblar paydo bo‘lmoqda va ularning egalari fan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning turli sohalarida ishlayotganiga qaramay, qiziqarli holat kuzatilmoqda. Masalan o‘tmishdagi an’anaviy kasblardan farqli o‘laroq, zamonaviy mutaxassisliklar bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan bir qancha sohalardagi vakolatlarni o‘z ichiga oladi.

Biroq ayrim kasblar bo‘ladiki masalan, shifokorlar yoki o‘qituvchilar bank-moliya sohalari va boshqa shunga o‘xshash kasblar sun’iy intellekt bilan almashtiriladigan vaqt tez orada kelmaydi, shuning uchun kelajak kasblari faqatgina inson omiliga e’tibor berish uchun shakllanishi maqsadga muvofiqdir.

Umuman bunday vaziyatlarda jamiyatdagi dolzarb muammolarga va yuqori texnologiyalarni rivojlantirish tendensiyalariga e’tibor berish kifoya. Ushbu mutaxassisliklarning ko‘pchiligini hozir o‘zlashtirish mumkin.

Bank xodimlarni boshqarish siyosatining asosiy vazifalari quyidagi samarali tizimlarni yaratishdan iborat:

- vakant lavozimlarga munosib nomzodlarni tanlash;
- yosh xodimlarni qo‘llab-quvvatlash;
- kadrlar zaxirasini shakllantirish;
- xodimlarni o‘qitish va rivojlantirish;
- korporativ qadriyatlarni rivojlantirish.

Vakant lavozimlarga nomzodlar tanlov asosida saralab olinadi. Tanlovni tashkil etishda shaffoflikni ta’minlash maqsadida test-sinovlari zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Shaffoflik tamoyili:

- vakant lavozimlar haqidagi ma’lumotlarni banklarning veb-saytida va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda ochiq joylashtirish;
- tanlovning dastlabki bosqichini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda inson omilini qisqartirish orqali amalga oshirish;
- nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish maqsadida Expert guruhi tuzish;
- nomzodlarga tanlov natijalarini ma’lum qilish orqali ta’minlanadi.

Shuningdek, Markaziy bankning maxsus stipendiya dasturi bo‘yicha tanlov o‘tkazib kelinmoqda. Tanlovda respublikaning bank ishi, iqtisodiyot, banklarda buxgalteriya hisobi, makroiqtisodiyot, statistika va axborot texnologiyalari yo‘nalishlari bo‘yicha ixtisoslanuvchi oliy o‘quv yurtlarining iqtidorli talabalari orasidan reyting baholari, test natijalari, xorijiy tillarni bilish darajasi hamda makroiqtisodiyot va mantiqiy fikrlashi yuzasidan o‘tkaziladigan suhbat yakuni bo‘yicha eng iqtidorli talabalar tanlab olinadi.

Mazkur dastur har yili oʻtkazilib, unda respublikamizdagi yetakchi oliy taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish huquqi quyidagi oliy oʻquv yurtlarining kunduzgi boʻlimida bakalavriatning soʻnggi bosqichida yoki magistratura darajasida tahsil olayotgan talabalarga beriladi:

- Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;
- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;
- Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy universiteti;
- Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti;
- Toshkentdagi INHA universiteti;
- Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti;
- Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti;
- MGIMO (Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti) Toshkent filiali.

Talabgorlar uchun asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- Soʻnggi oʻquv yili yakuniga koʻra reyting koʻrsatkichi kamida 86% boʻlishi;
- Davlat tilini mukammal darajada egallagan boʻlishi;
- Rus va ingliz tillarini kamida B2 darajasida bilishi.

Talabgorlarga ustunlik beriladigan mezonlar:

- ACCA va boshqa xalqaro darajadagi moliyaviy sertifikatlarga ega boʻlish;
- Big Data (katta maʼlumotlar) bilan ishlash koʻnikmasiga ega boʻlish;
- IELTS sertifikatida 7.0 yoki undan yuqori ball;
- Iqtisodiyot, moliya yoki axborot texnologiyalari yoʻnalishidagi xalqaro yoki respublika miqyosidagi olimpiadalarda gʻolib yoki sovrindor boʻlish.

Banklarga yangi ishga qabul qilingan xodimlarni moslashtirish boʻyicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. Mazkur jarayon malakali mutaxassislar tomonidan olib borilib, yoshlarning ish oʻrinlariga tezroq moslashib, jamoaviy ishlash koʻnikmalarining shakllanishiga imkoniyatlarni bermoqda. Qayd etishimiz lozim, mazkur jarayonlarni tizimga tatbiq etishda xorijiy davlatlar markaziy banklari tajribasi va xalqaro ekspertlarning fikr va takliflaridan keng foydalanilmoqda.

Kadrlar resursidan oqilona foydalanish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida har yili rahbarlik lavozimlari uchun salohiyatli kadrlardan iborat zaxira tarkiblari tasdiqlanadi. Zaxira tarkibidagi xodimlarni rivojlantirishga, ularning yetakchi xorijiy universitetlarda taʼlim olishlariga va xalqaro institutlarda malakalarini oshirishga, shuningdek, yirik anjuman va xalqaro uchrashuvlarda munosib ishtirok etishga alohida eʼtibor qaratiladi.

Banki xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish boʻyicha uzluksiz tizim yaratilgan boʻlib, u oʻz ichiga chet el xalqaro tashkilotlari, moliya institutlari, chet el banklari va boshqa tashkilotlar tomonidan tashkil etilayotgan seminar, oʻquv-kurslari, treninglar, xalqaro anjumanlar, stajirovka va xorijiy xizmat safarlarini qamrab oladi. Xususan, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Yaponiyaning xalqaro hamkorlik markazi (JICA), Yaponiya taraqqiyot stipendiyasi (JDS), Koreya

xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA), Yaponiya siyosiy fanlar milliy instituti (GRIPS), Yaponiyaning Sukuba va Xitotsubashi universitetlari, shuningdek, mamlakatimizdagi nufuzli “El-yurt umidi” jamgʻarmasi grant dasturlari va boshqa grantlar asosida magistratura yoʻnalishlarida tanlov asosida tahsil olish imkoniyatlari mavjud.

Shu bilan birga ushbu Tarmoq malaka ramkasini tuzish jarayonida bank tizimi vakillari bilan bank ishi sohasidagi istiqboldagi (ochilishi rejalashtirilayotgan) yangi kasblar (lavozim) toʻgʻrisida tadqiqot va soʻrovlar oʻtkazildi va tegishli xulosalar chiqarilib kelgusidagi har bir holat boʻyicha tegishli tartibda koʻrib chiqilishi belgilab olindi.

Tarmoqda paydo boʻlayotgan kasblar:

Moliya boʻyicha sunʼiy intellekt boʻyicha mutaxassis (AI/ML Finance Specialist) — moliyaviy xizmatlar, firibgarlikni aniqlash, takliflarni shaxsiylashtirish va xizmatlarni avtomatlashtirish uchun AI modellarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, mijozlarning xatti-harakatlarining bashoratli modellarini yaratadi, modellarning talqin qilinishi va meʼyoriy talablarga muvofiqligini taʼminlaydi;

Barqaror moliya va barqaror rivojlanish maqsadlari boʻyicha ekspert (ESG Finance Specialist) — yashil kreditlar, obligatsiyalar va investitsiya mahsulotlarini ishlab chiqadi va baholaydi, kontragentlar va qarz oluvchilarning auditini oʻtkazadi va xalqaro standartlarga muvofiq barqarorlik hisobotini taʼminlaydi;

Raqamli moliyaviy mahsulotlar boʻyicha Product Owner/Product Manager – raqamli mahsulotlar (mobil banking, investitsiya platformalari va boshqalar) uchun strategiyani belgilaydi, biznes, texnologiya va mijozlar tajribasidan kelib chiqib mahsulotlarni yaxshilash uchun maʼlumotlarni tayyorlaydi;

Open banking va API-iqtisodiyoti boʻyicha mutaxassis – bank xizmatlarini tashqi platformalar (doʻkonlar, fintech startaplari, davlat xizmatlari) bilan birlashtiradi, B2B va B2C uchun API-mahsulotlarini ishlab chiqadi va qoʻllab-quvvatlaydi, ochiq interfeyslarning xavfsizligi va kengayishini taʼminlaydi;

Maʼlumotlar etikasi boʻyicha mutaxassis (Data Ethicist) – mijoz maʼlumotlaridan foydalanishning axloqiy xavflarini baholaydi (diskriminatsiya, manipulyatsiya, maxfiylik), sunʼiy intellekt va katta maʼlumotlardan foydalanish boʻyicha ichki siyosatni ishlab chiqadi;

Raqamli identifikatsiya va tekshirish boʻyicha mutaxassis (Digital KYC/AML Specialist) – raqamli identifikatsiya tizimlari, biometrik tekshirish, hujjat skanerlarini joriy qiladi va boshqaradi, mijozlarning AML/STF talablariga muvofiqligini tekshirish jarayonini avtomatlashtiradi, blokcheyn identifikatorlari va markazlashtirilmagan identifikatorlar bilan ishlaydi;

UX/UI moliyaviy xizmatlar dizayneri – bank ilovalari va veb-saytlari uchun intuitiv va xavfsiz interfeyslarni ishlab chiqadi, testlar oʻtkazadi, turli mijozlar segmentlarining moliyaviy savodxonlik ehtiyojlarini hisobga olgan holda foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini oʻrganadi;

Normativ texnologiyalar bo‘yicha mutaxassis (RegTech Specialist) – me’yoriy talablarga (hisobot berish, tranzaksiya monitoringi, risklarni boshqarish) muvofiqlikni avtomatlashtiradi, xarajatlarni kamaytirish uchun sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni joriy qiladi, qonunchilikdagi o‘zgarishlarni tahlil qiladi va bank tizimlarini moslashtiradi;

Markazlashtirilmagan moliyaviy tizimlar arxitektori (DeFi/Web3 Architect) — bank mahsulotlarining blokcheyn platformalari bilan integratsiyalashuvini o‘rganadi va sinovdan o‘tkazadi, aktivlarni saqlash, kreditlash va tokenizatsiya qilish uchun gibrid yechimlarni ishlab chiqadi va kripto aktivlari bilan ishlashning huquqiy va xavfli tomonlarini baholaydi;

Mijozlarning moliyaviy savodxonligi bo‘yicha mutaxassis (Financial Wellness Advisor) — mijozlarga shaxsiy mablag‘larini boshqarishda yordam beradi (byudjet tuzish, jamg‘armalar, qarzlarni qisqartirish), shaxsiy tavsiyalar berish uchun raqamli vositalar va xatti-harakatlar tahlilidan foydalanadi va bankning sodiqlik va moliyaviy savodxonlikni oshirish strategiyasi doirasida ishlaydi;

Mijoz tahlilchisi (Customer Journey Analist) — bank bilan o‘zaro aloqaning barcha nuqtalarini optimallashtiradi, muammolarni aniqlaydi, ularni avtomatlashtirish, shaxsiylashtirish yoki xizmatlarni yaxshilash orqali yechimlarni taklif qiladi, CRM, mobil ilovalar, qo‘ng‘iroq markazlari va chatlardagi ma’lumotlar bilan ishlaydi;

Biznes jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha mutaxassis (BPM/RPA Specialist) — muntazam operatsiyalarni avtomatlashtiradi (ilovalarni qayta ishlash, hujjatlarni tekshirish, hisobot berish), RPA botlarini joriy qiladi va qo‘llab-quvvatlaydi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va jarayonni bajarish vaqtini tezlashtiradi;

Reputatsiya risklari menejeri – jamoatchilik fikrini, ommaviy axborot vositalarini va ijtimoiy tarmoqlarni bank obro‘siga tahdidlar mavjudligini kuzatib boradi, inqirozli aloqalar strategiyasini ishlab chiqadi, mijozlar va korporativ siyosatning jamoatchilik fikrlariga mos kelishini ta’minlaydi;

Raqamli aktivlar va kripto xizmatlar bo‘yicha mutaxassis — kripto-aktivlarga ega bo‘lgan mijozlarga xizmat ko‘rsatadi, raqamli aktivlar bo‘yicha yechimlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi va xavflarni hamda qonunchilikka rioya qilishni tahlil qiladi;

Xulq-atvor moliyaviy tahlilchisi (Behavioral Finance Analist) — mijoz xatti-harakatlarining irratsional modellarini o‘rganadi;

Hamkor ekotizimlar menejeri (Banking-as-a-Service/BaaS Meneger) - moliyaviy bo‘lmagan kompaniyalar (chakana, telekommunikatsiya, transport) bilan integratsiyani ta’minlaydi va boshqaradi, uchinchi tomon ilovalari doirasida xizmat sifatida bank xizmatlarini taqdim etadi;

Raqamli identifikatsiyani boshqarish bo‘yicha mutaxassis (Digital Identity Manager) — mijozlarning raqamli identifikatorlarini boshqarish strategiyasini

ishlab chiqadi, xavfsiz autentifikatsiyani ta'minlaydi va qoidalar va standartlarga muvofiqlikni nazorat qiladi;

Moliyaviy inklyuziya arxitektori — xizmat ko'rsatilmagan segmentlar (mikro tadbirkorlar, qishloq aholisi, keksalar) uchun mahsulot va kanallarni ishlab chiqadi, skoring uchun muqobil ma'lumotlardan foydalanadi (to'lov shakllari, mobil operatsiyalar);

Barqaror moliya va yashil investitsiyalar tahlilchisi — bu bank faoliyatida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) tamoyillarini hisobga olib, investitsiya va kredit loyihalarining barqarorlik darajasini tahlil qiluvchi mutaxassis.

Ijtimoiy ta'sir tahlilchisi (Impact Investment Analyst) – Ijtimoiy foydali loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini baholovchi mutaxassis.

Bugungi davr bank tizimining ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorligining yangi shakllarini talab qilmoqda. Ma'lumki har bir tijorat bankining strategik afzalligi xodimlarning intellektual salohiyati va malakasi bilan belgilanadi. Albatta bu borada respublikamiz ta'lim muassasalarining o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda tayanch oliy ta'lim muassasasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Mirzo-Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Termiz davlat universiteti, Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti hamda Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti hisoblandi. Shuningdek bank mutaxassislarining dunyoning rivojlangan va rivojlanib kelayotgan mamlakatlarida malaka oshirib, tajriba almashib kelishlari tizimda faoliyat yurituvchi kadrlarning bilim va malakalari oshishiga xizmat qilmoqda.

## 4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi.

| T/r | Lavozim va kasblar kodi | Lavozim va kasblar nomi |
|---|---|---|
| 1. | 11200006 | Boshqaruv (korporatsiya, assotsiatsiya, bank, trest) raisi va o'rinbosarlari |
| 2. | 11200007 | Bank boshqaruvi raisi |
| 3. | 11200010 | Direktor va o'rinbosarlari |
| 4. | 11200023 | Korxona bosh direktori (boshlig'i, boshqaruvchisi) va o'rinbosarlari |
| 5. | 11200026 | Muassasalar, tashkilotlar va korxonalar rahbarlarining maslahatchisi |
| 6. | 11200046 | Vazirlik huzuridagi agentlik (qo'mita, birlashma va boshqa) direktori |
| 7. | 12111001 | Buxgalteriya bo'limi boshlig'i |
| 8. | 12111002 | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi boshlig'i (bosh buxgalter) |
| 9. | 12111003 | Byudjetni rejalashtirish bo'yicha rahbar (bosh iqtisodchi) |
| 10. | 12111004 | Filial (bank, moliyaviy xizmatlar va boshqalar) boshqaruvchisi |
| 11. | 12111005 | G'aznachilik rahbari |
| 12. | 12111006 | Hisob-kitob va kassa ishlari bo'yicha rahbar |
| 13. | 12111007 | Ichki audit nazorati bo'yicha rahbarlar (bosh auditor) |
| 14. | 12111011 | Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i (mudiri) |

| | | |
|---|---|---|
| 15. | 12111012 | Moliya-iqtisod sohasida departament (boshqarma) direktori (boshligʻi) |
| 16. | 12111013 | Moliya-iqtisod xizmati (qismi) boshligʻi |
| 17. | 12112002 | Ijro apparati va ijro intizomi/nazorati boʻyicha rahbarlar |
| 18. | 12112007 | Markaziy ijro organi birinchi rahbarlarining yordamchilari, maslahatchisi |
| 19. | 12112008 | Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalar rahbarlarining yordamchilari |
| 20. | 12112009 | Qabulxona boshligʻi (mudiri) |
| 21. | 12190006 | Bosh ekspert |
| 22. | 12190009 | Bosh inspektor |
| 23. | 12222002 | Call-markaz rahbari (boshqaruvchisi) |
| 24. | 12222003 | Mijozlarga xizmat koʻrsatish boʻyicha boʻlim boshligʻi (mudiri) |
| 25. | 13460002 | Bank operatsiyalarini boshqarish rahbari |
| 26. | 13460003 | Bankdagi pul oʻtkazmalar, toʻlovlar va valyuta nazorati hisobi rahbari |
| 27. | 13460006 | Kredit boʻlimi rahbari |
| 28. | 13460007 | Kredit muassasasi mijozlar bilan ishlash boshqaruvchisi |
| 29. | 13460011 | Muammoli kreditlar bilan ishlash boʻlinmasi rahbari |
| 30. | 13460013 | Sho’ba (sektor) mudiri |
| 31. | 14390018 | Inkassatorlik guruhi boshligʻi |
| 32. | 24111001 | Auditor |
| 33. | 24112001 | Bank hujjatlari ekspeditori |
| 34. | 24112002 | Buxgalter |
| 35. | 24112005 | Hisob-kitob boʻyicha buxgalter |
| 36. | 24113007 | Rejalashtirish boʻyicha iqtisodchi (6) |
| 37. | 24121003 | Moliya boʻyicha professional-mutaxassis |
| 38. | 24131002 | Moliyaviy tahlilchi |
| 39. | 24134001 | Faktoring operatsiyalari boʻyicha professional-mutaxassis |
| 40. | 24134002 | Kredit menejeri |
| 41. | 24134003 | Kredit tahlilchisi |
| 42. | 24134004 | Kredit xavflari boʻyicha professional-mutaxassis |
| 43. | 24134005 | Kreditni baholash boʻyicha tahlilchi |
| 44. | 24139006 | Valyuta nazorati boʻyicha professional-mutaxassis |
| 45. | 24211001 | Boshqaruv masalalari boʻyicha maslahatchi |
| 46. | 24223003 | Xalqaro hamkorlik boʻyicha boʻyicha professional-mutaxassis |
| 47. | 24321003 | Jamoatchilik bilan aloqalar boʻyicha professional-mutaxassis |
| 48. | 25293004 | Kiberxavfsizlik siyosati va standartlari boʻyicha professional- mutaxassis |
| 49. | 26311005 | Iqtisodchi |
| 50. | 26311007 | Iqtisodiy tahlil va baholar boʻyicha ekspert |
| 51. | 26311017 | Moliyaviy ishlar boʻyicha iqtisodchi |
| 52. | 33120004 | Kredit inspektori |
| 53. | 33130004 | Buxgalter – kassir |
| 54. | 33220001 | Bank agenti |
| 55. | 33410016 | Ofis-menejer |
| 56. | 42111001 | Bank kassiri |
| 57. | 42111002 | Bank tizimidagi nazoratchi |
| 58. | 42111003 | Kassa ishlari boʻyicha inspektor |
| 59. | 42111004 | Valyuta bilan ishlovchi kassir |
| 60. | 42111005 | Xalqaro pul oʻtkazuvi boʻyicha operator-kassir |
| 61. | 42119002 | Bank tekshiruvchisi |

| | | |
|---|---|---|
| 62. | 42220003 | Call-markaz operatori |
| 63. | 42220004 | Call-markaz supervayzeri |
| 64. | 42220005 | Mijozlar bilan hamkorlik bo‘yicha axborot xizmati xodimi |
| 65. | 42220006 | Mijozlar bilan ishlash bo‘yicha axborot xizmati xodimi-3 |
| 66. | 42241001 | Kotib-resepshionist (umumiy yo‘nalish) |
| 67. | 43111004 | Hisob texnikasi bo‘yicha texnik |
| 68. | 43129001 | Bank operatsiyalari bo‘yicha xizmatchi |
| 69. | 52300006 | Nazoratchi kassir |
| 70. | 54190005 | Inkassator |
| 71. | 83220003 | Inkassator haydovchisi |

## 5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma’lumot

| T/r | Kasbiy standartlar soni | Qamrab olinadigan kasb (lavozim)lar soni | Ishlab chiqiladigan yil va oy |
|---|---|---|---|
| 1 | 3 | 14 | 2025 yil, dekabr |
| 2 | 2 | 6 | 2026 yil, dekabr |

## 6.Tarmoq malakalar ramkasi malaka darajalarining tavsifi

| Malaka darajasi | | Bilim | Ko'nikma (mahorat) | Mas'uliyat va mustaqillik | Kasbiy faoliyat turlari va lavozim (kasb)lar kodi hamda nomi |
|---|---|---|---|---|---|
| Milliy malaka ramkasi (MMR) | Tarmoq malaka ramkasi (TMR) | | | | |
| **1** | **1** | O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha elementar va boshlang'ich umumiy bilimlar | Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar | O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik;<br>O'zganing bevosita nazorati va kuzatuvi ostida ishlash | |
| **2** | **2** | O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha umumiy amaliy bilimlar | Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar | O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik;<br>Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish | |
| **3** | **3.1** | Mijozlarga xizmat ko'rsatish standartlari va etikasi, mijoz bilan yozma va og'zaki muloqot madaniyati, korxona faoliyati sohasi, xizmatlari, jarayonlari, mahsulotlari, tariflari, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari (telefon tizimi, CRM dasturlari) asoslari, axborot berish va reklama kommunikatsiyasi tamoyillari, elektron pochta, veb-chat, ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa | Mijozlar bilan telefon, elektron pochta va chat orqali tez, aniq muloqot qilish va xushmuomalada bo'lish, mijoz muammosini tinglab yechimni tez taklif qilish, mijoz ehtiyojlarini aniqlash va shaxsiy yondashuvni qo'llash, turli ziddiyatli holatlarni tinch yo'l bilan bartaraf etish, hamkor korxonalar bilan tizimli aloqa yuritish, ish jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanish, CRM dasturlariga | Mijozlar bilan bo'lgan suhbat jarayonida belgilangan xizmat reglamentlariga, xizmat madaniyatiga, korxona siyosatiga qat'iy rioya qilgan holda korxona obro'sini saqlashda o'z harakatlari va ish jarayoni natijalari uchun shaxsiy javobgarlik;<br>maxfiy ma'lumotlarni oshkor etmaslik uchun, ma'lumotlarning aniqligi va sir saqlanishi uchun, mijozga berilgan axborotning to'g'riligi | **82.20 Axborot-ma'lumotnoma xizmati faoliyati**<br>42220003 Call-markaz operatori<br>42220006 Mijozlar bilan ishlash bo'yicha axborot xizmati xodimi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | yuritish texnikasi, suhbat olib borish psixologiyasi va stressni boshqarish asoslari, mijozlarning shikoyatlarini qayd etish va yoʻnaltirish tartibi, marketing, sotuv va mijozlar bilan munosabatlar boshqaruvi (CRM) asoslari, korxonaning hamkorlik siyosati, mijoz segmentatsiyasi, elektron axborot tizimlari va maʼlumotlar bazasi bilan ishlash qoidalari, biznes etikasi va xizmat madaniyati, hujjat yuritish asoslari, tahliliy fikrlash va hisobot tayyorlash asoslari qoidalarini bilishga doir umumiy amaliy va kasbiy bilimlar. | maʼlumot kiritish, yangilash va kuzatish, bir vaqtning oʻzida bir nechta soʻrovni qayta ishlash, xizmat sifatini oshirish uchun mijozlardan tushgan taklif va eʼtirozlarni tahlil qilib tegishli boʻlimga yoʻnaltirish, shuningdek axborot hujjatlarini toʻgʻri tayyorlash va rasmiylashtirish uchun zarur boʻlgan amaliy va kognitiv koʻnikmalar. | va aniqligi uchun shaxsiy javobgarlik;<br>ish jarayonida mustaqil ravishda axborot yigʻish va tahlil qilish uchun shaxsiy javobgarlik;<br>rahbar nazorati ostida ishlaydi, muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qiladi;<br>murakkab vaziyatlarda rahbar yoki tajribali mutaxassis bilan maslahatlashib qaror qabul qiladi. | |
| | **3.2** | Naqd pul operatsiyalari, naqd va naqd pulsiz operatsiyalar, valyuta nazorati boʻyicha qonun hujjatlari, naqd pulni qabul qilish, berish, saqlash va inkassatsiya qilish tartiblari, naqd pul hujjatlarini tayyorlash qoidalari, bank kartalari, POS-terminallar va onlayn kassa apparatlari bilan ishlash qoidalari, naqd pul hisoboti va balansni solishtirishning asosiy | Naqd pul mablagʻlarini tez va aniq hisoblash, kassa operatsiyalari, kassa va hisob-kitob hujjatlarini malakali toʻldirish va solishtirish, birlamchi hujjatlardagi xato va qoidabuzarliklarni aniqlash, kassa dasturiy taʼminotidan ishonchli foydalanish, valyuta detektorlari, sanoq mashinalari, terminallardan foydalanish, balans va hisob-kitoblardagi | Naqd pul va qimmatbaho narsalarning etishmasligida, ortiqchaligi yoki yoʻqolishlarda, naqd pul va toʻlov hujjatlarining toʻgʻri rasmiylashtirilishida, toʻliqligi va oʻz vaqtida taqdim etilishida, oʻzining nazorati doirasidagi nomuvofiqliklarda, soxtalashtirishlarda va xatolarda, mijozlar, tranzaksiyalar va ichki | **64.19 Pul-kredit vositachiligining boshqa turlari.**<br>52300006 Nazoratchi kassir<br>43111004 Hisob texnikasi boʻyicha texnik<br>42111003 Kassa ishlari boʻyicha inspektor |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tamoyillari, naqd pul, buxgalteriya hisobi va operatsion yozuvlar o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish, kassa dasturlari va bank tizimlari, qalbaki banknotalar belgilari va firibgarlik sxemalari, ichki moliyaviy xavfsizlik va maxfiylik qoidalariga rioya qilish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, tartiblarni tushuntirish, muammolarni hal qilish qoidalarini bilishga doir umumiy amaliy va kasbiy bilimlar. | tafovutlarni aniqlash, operatsion hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish, mijozlar, kassirlar, buxgalteriya yoki nazorat bo‘limlari bilan o‘zaro munosabatlar, ma’lumotlarni aniq va to‘g‘ri etkazish uchun zarur bo‘lgan amaliy va kognitiv ko‘nikmalar. | jarayonlar haqidagi ma’lumotlar bilan ishlashda o‘z harakatlari va ish jarayoni natijalari uchun shaxsiy javobgarlik;<br>rahbar nazorati ostida ishlaydi, muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qiladi;<br>murakkab vaziyatlarda rahbar yoki tajribali mutaxassis bilan maslahatlashib qaror qabul qiladi. | |
| **4** | **4.1** | Mahsulotlar, tariflar, protseduralar va ichki jarayonlari, maqsadli ko‘rsatkichlarni o‘lchash usullari, qo‘ng‘iroqlarni yo‘naltirish, navbatlar, CRM-tizimlar, skriptlar va so‘rovlarni qayta ishlash tartiblari, Iste’molchilar huquqlari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalari, moliyaviy xizmatlar monitoring usullari, sifatni boshqarish, xodimlarni baholash va rivojlantirish, operatsion hisobotlarni o‘qish, qiyin vaziyatlarda | Ilhomlantirish, intizomni saqlash va operatorlarni jalb qilish, yuqori sifatli monitoring va konstruktiv sharhlarni o‘tkazish, tahlil qilish va ma’lumotlar asosida qaror qabul qilish, nosozliklar, ish yukining ko‘tarilishi, mojarolar yoki mijozning murakkab vaziyatlariga tezkor javob berish, jamoa va boshqa bo‘limlar bilan aniq, xushmuomalalik va moslashuvchan muloqot qilish, Ish yuki prognozlarini, davomat chegaralarini va ta’tillarni | Jamoa ishining belgilangan standartlarga muvofiqligini ta’minlashda, maqsadli ko‘rsatkichlar va xizmat ko‘rsatish darajalariga erishishda, yangi xodimlarni o‘rgatish va o‘qitishda, hamkorlikni saqlab qolish va aylanmani kamaytirishda, operatorlarning ish jadvaliga rioya qilishlarida, ish joyidagi intizom va tizimlar hamda vositalardan to‘g‘ri foydalanishni nazorat qilishda, jamoa faoliyati bo‘yicha hisobotlarni tayyorlashda, | **82.20 Axborot-ma’lumotnoma xizmati faoliyati**<br>42220004 Call-markaz supervayzeri |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | deeskalatsiya tartiblari va jamoani qo‘llab-quvvatlash qoidalarini bilishga doir umumiy amaliy va kasbiy bilimlar. | hisobga oladigan jadvallarni tuzish, avtomatlashtirilgan ish oqimi tizimlari, CRM tizimlari, telefoniya<br>va ichki bilim bazalaridan ishonchli foydalanish uchun zarur bo‘lgan amaliy va kognitiv ko‘nikmalar. | jamoa faoliyatining qonun hujjatlariga muvofiqligini ta’minlashda o‘z harakatlari va ish jarayoni natijalari uchun shaxsiy javobgarlik;<br>rahbar nazorati ostida ishlaydi, muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qiladi;<br>murakkab vaziyatlarda rahbar yoki tajribali mutaxassis bilan maslahatlashib qaror qabul qiladi. | |
| | **4.2** | Bank faoliyati, bank tizimi tuzilishi, valyuta va moliya qonunchiligi, schyotlar turlari, buxgalteriya hisoblari, debet va kredit amaliyotlari, to‘lov hujjatlari, bank kartalari, elektron to‘lov tizimlari, valyuta kurslari, ayirboshlash tartibi, valyutani hisobga olish qoidalari, bank xizmat ko‘rsatish standartlari, servis madaniyati, kommunikatsiya psixologiyasi,<br>avtomatlashtirilgan bank tizimlari, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash, kiberxavfsizlik asoslari, kredit, depozit, plastik karta va onlayn xizmatlar turlari bo‘yicha o‘quv yoki | Operatsiyalarni tez va aniq bajarish, mijoz hujjatlarini tekshirish, ma’lumotni tizimga kiritish, xatolarsiz hisob yuritish, elektron to‘lov tizimlaridan foydalanish (Uzcard, Humo, Swift, Click, Payme va boshqa) platforma orqali amaliyot bajarish, pulni sanash, haqiqiyligini tekshirish, naqd operatsiyalarni yuritish, mijozlar savollariga aniq javob berish, xizmat madaniyati, muammoli vaziyatlarni hal qilish, ma’lumotlarni himoya qilish, konfidensial ma’lumot bilan ishlashda axloq va xavfsizlik me’yorlariga rioya qilish, kunlik operatsiyalar bo‘yicha hisobotni | Mijoz ma’lumotini sir saqlashda, ish jarayonida xolislik va shaffoflikni ta’minlashda, kasbiy xatolarni oldini olishda o‘z harakatlari va ish natijalari uchun shaxsiy javobgarlik;<br>Ish jarayonini mustaqil rejalashtirish va tashkil qilish | **64.11 Markaziy bank faoliyati**<br>43129001 Bank operatsiyalari bo‘yicha xizmatchi<br>83220004 Inkassator haydovchisi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | kasbiy faoliyat sohasi bo‘yicha keng qamrovli amaliy va nazariy bilimlar | tuzish, elektron shaklda taqdim etish, jamoaviy ishlash, boshqa bo‘limlar bilan muvofiqlashtirilgan ishni tashkil etish bo‘yicha mehnat holati va uning oldindan aytish mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarini baholashni talab qiladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan amaliy va kognitiv ko‘nikmalar | | |
| **5** | **5** | Bank tizimi va qonunchilik asoslari, Markaziy bank funksiyalari va tijorat banklarining faoliyat asoslari, moliya va kredit nazariyasi, kredit siyosati, foiz stavkalari, risk va kafolat tamoyillari, buxgalteriya va bank hisoblari, bank operatsiyalari hisobini yuritish, debet/kredit harakatlari, hisob raqamlar bilan ishlash, naqd va naqdsiz hisob-kitoblar, elektron to‘lov tizimlari, naqd pul aylanmasi va plastik karta operatsiyalari, valyuta va xalqaro hisob-kitoblar, SWIFT, Western Union va boshqa tizimlarda xalqaro o‘tkazmalar asoslari, qonunchilik va normativ hujjatlar, bank | Mijozni qabul qilish va identifikatsiya qilishda, hujjatlarni tekshirishda, shaxsni aniqlash va operatsiyani rasmiylashtirishda bank operatsiyalarini aniq va tez bajarishda, kredit, to‘lov, valyuta yoki xalqaro pul o‘tkazmalar bo‘yicha amaliyotlarni to‘g‘ri amalga oshirishda, axborot tizimidan foydalanishda, ABS, Swift, CRM va boshqa dasturlarda ishlashda, hisob-kitob va hujjat yuritishda, ma’lumotlarni kiritishda, xatolarni aniqlashda va elektron arxivlashda, pul mablag‘larini tekshirishda, naqd pulning haqiqiyligini aniqlashda va xato hisobni oldini olishda, mijoz bilan samarali muloqot | Moliyaviy intizomni ta’minlashda halollik, xolislik va xizmatda etik hamda axloqiy me’yorlarga amal qilish jarayonlarida, har bir operatsiyaning qonun doirasida va aniq amalga oshirilishi jarayonlarida, mijoz mablag‘lari xavfsizligini ta’minlash jarayonlarida, naqd va elektron mablag‘larni himoya qilish jarayonlarida, maxfiy ma’lumotlar bilan ishlash jarayonlarida biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun shaxsiy javobgarlik;<br>Biriktirilgan xodimlar mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish, ularning mehnatini tekshirish | **64.11 Markaziy bank faoliyati**<br>54190005 Inkassator<br>**64.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sug‘urtalash va nafaqa jamg‘armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari.**<br>42111001 Bank kassiri<br>42119002 Bank tekshiruvchisi<br>42111002 Bank tizimidagi nazoratchi<br>42111004 Valyuta bilan ishlovchi kassir<br>42111005 Xalqaro pul o‘tkazuvi bo‘yicha operator-kassir |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | qonunchiligi, KYC va AML talablari, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qoidalari, axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik, bank avtomatlashtirilgan tizimlari, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash, frod xavfini oldini olish sohasi bo‘yicha ixtisoslashgan amaliy va nazariy bilimlar | qilishda, qiyin vaziyatlarda yechim topishda, servisning yuqori darajasini ta’minlashda, kredit tavakkalchiligini yoki operatsiya xavfini baholashda muammolarga ijodiy yechimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan keng qamrovli amaliy va kognitiv ko‘nikmalar | va rivojlantirish, xavfsiz ish muhitini ta’minlash va mehnat samaradorligini oshirishga oid mas’uliyat va mustaqillik;<br>Boshqa tarkibiy bo‘limlar bilan muvofiqlashtirilgan ish olib borish;<br>Kasbiy faoliyat sohasidagi ish jarayonlari va jamoa faoliyatini tashkillashtirishda rahbarlar bilan kelishgan holda bajarish;<br>Texnik qarorlarni mustaqil qabul qilish;<br>Kasbiy faoliyat sohasidagi ish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish | 33130004Buxgalter – kassir |
| **6** | **6.1** | Qimmatbaho narsalarni (buyumlarni) tashish va himoya qilish bo‘yicha qonuniy talablarga muvofiq naqd pul bilan ishlash, naqd pul va boshqa boyliklarni marshrutlash, favqulodda vaziyatlarda va hujumlar vaqtida xavfsizlik standartlariga muvofiq qabul qilish, tashish va jismoniy saqlash, qo‘shimcha hujjatlarni tayyorlash, marshrutni rejalashtirish, GPS monitoringi va qimmatbaho narsalarni kuzatish tizimlari uchun | Marshrutlarni rejalashtirishda, vazifalarni taqsimlashda, murabbiylik qilish va jamoani boshqarishda, stress ostida qaror qabul qilishda, bo‘ysunuvchilar, boshqa bo‘limlar va mijozlar bilan muloqot vaqtida, naqd pul yig‘ishda, transport vositalari va naqd pullarni himoya qilishda, naqd pul mablag‘larini inkassatsiya qilish operatsiyalarining to‘g‘riligini nazorat qilishda, hujjatlarni solishtirish va hisobot berishda, yuqori xavfli va mas’uliyatli | Naqd pulni tashish, qabul qilish va topshirish jarayonida xavfsizlikni ta’minlash, bankning ichki qoidalari va qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, inkassatsiya paytida naqd pul va hujjatlarning yo‘qolishi, o‘g‘irlanishi yoki shikastlanishini oldini olish, jamoa ishini tashkil etish, tartib-intizom, topshiriqlar berish va ularning bajarilishini nazorat qilish, barcha qo‘shimcha hujjatlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri tayyorlash va | **64.11 Markaziy bank faoliyati.**<br>14390018 Inkassatorlik guruhi boshlig‘i |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanish, xavfsizlikni hisobga olgan holda marshrutlarni optimallashtirish, xodimlar motivatsiyasi, intizom va xodimlarni baholash bo'yicha keng integratsiyalashgan bilimlar, jumladan ilmiy asoslar, ilmiy va nazariy muammolarni, shuningdek, eng muhim nazariyalar va usullarni amaliy qo'llash | muhitda ishlashda, buxgalteriya hisobi, marshrutlash va hisobot berish uchun maxsus dasturlardan foydalanishda turli standartlar va tez o'zgarib turadigan talablarni hisobga olgan holda yangi yechimlarni ishlab chiqish, faoliyat, usullar va ularning natijalarini baholash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar | ma'lumotlarni buxgalteriya tizimiga kiritish, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda rahbariyat va huquqni muhofaza qilish organlarini tezkorlik bilan xabardor qilish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish va biriktirilgan xodimlarning kasbiy rivojlanishini boshqarish uchun javobgarlik;<br>Ish jarayonidagi faoliyat sohasida qarorlar qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;<br>Murakkab texnik va kasbiy faoliyat va loyihalarni boshqarish, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish va xavfsizlikni ta'minlash, ichki jarayonlarni yaxshilash;<br>Biriktirilgan xodimlarning professional rivojlanishiga rahbarlik qilish va jamoadagi muammolarni hal qilish. | |
| | **6.2** | Moliyaviy va buxgalteriya hisobi, milliy va xalqaro buxgalteriya standartlari (MSFO, IFRS), bank tizimi va qonunchilik asoslari, bank faoliyati, nazorat va auditorlik tartiblari, soliq va auditorlik | Hisob-kitob, balans, foyda va zarar hisobotlarini tahlil qilishda, moliyaviy hisobot tayyorlashda, milliy va xalqaro standartlar bo'yicha hisobot shakllantirishda, hujjat aylanmasi bilan ishlashda, | Moliyaviy intizom va shaffoflik, hisobotlar aniqligi va qonuniyligi, axborot maxfiyligi, moliyaviy ma'lumotlarni himoya qilish va oshkor etmaslik, hisobot yoki audit xulosasi va tekshiruv natijalari | **64.19 Pul-kredit vositachiligining boshqa turlari**<br>33220001 Bank agenti<br>13460003 Bankdagi pul o'tkazmalar, to'lovlar va |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | amaliyoti, soliq turlari, hisobot berish va tekshirish tartiblari, korxona moliyaviy tahlili, aktiv, passiv, likvidlik va tavakkalchilikni baholash usullari, bank xavflarini boshqarish, kredit, operatsiya va komplayens risklarini baholash, axborot tizimlari va kiberxavfsizlik, buxgalteriya va bank dasturlaridan foydalanish asoslari, qonunchilik va etika, bank, audit va komplayens sohalaridagi me'yoriy hujjatlar, ichki nazorat tizimi, korporativ boshqaruv, ichki tekshiruv va moliyaviy intizom mexanizmlari, inkassatsiya xavfsizligi, pul mablag'larini tashish va muhofaza qilish sohasi bo'yicha keng integratsiyalashgan bilimlar, jumladan ilmiy asoslar, ilmiy va nazariy muammolarni, shuningdek, eng muhim nazariyalar va usullarni amaliy qo'llash | inkassatsiya, auditor yoki moliyaviy hujjatlarni rasmiylashtirishda, moliyaviy xavflarni aniqlashda, tekshiruv natijalari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda, axborot tizimlaridan foydalanishda, 1C, ERP, ABS tizimlarida ishlashda, jamoa ishini muvofiqlashtirish va nazorat qilishda, komplayens va ichki nazorat hujjatlarini normativ talablarga muvofiqlikni ta'minlashda, moliyaviy natijalar asosida strategik qarorlar qabul qilishda, rahbariyat va hamkasblar bilan samarali hamkorlik qilishda turli standartlar va tez o'zgarib turadigan talablarni hisobga olgan holda yangi yechimlarni ishlab chiqish, faoliyat, usullar va ularning natijalarini baholash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar | haqqoniyligi, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va kasbiy axloq qoidalariga amal qilish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish va biriktirilgan xodimlarning kasbiy rivojlanishini boshqarish uchun javobgarlik;<br>Ish jarayonidagi faoliyat sohasida qarorlar qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;<br>Murakkab texnik va kasbiy faoliyat va loyihalarni boshqarish, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish va xavfsizlikni ta'minlash, ichki jarayonlarni yaxshilash;<br>Biriktirilgan xodimlarning professional rivojlanishiga rahbarlik qilish va jamoadagi muammolarni hal qilish. | valyuta nazorati hisobi rahbari<br>13460006 Kredit bo'limi rahbari<br>13460007 Kredit muassasasi mijozlar bilan ishlash boshqaruvchisi<br>13460011 Muammoli kreditlar bilan ishlash bo'linmasi rahbari<br>24113007 Rejalashtirish bo'yicha iqtisodchi<br>24131002 Moliyaviy tahlilchi<br>24134001 Faktoring operatsiyalari bo'yicha professional-mutaxassis<br>24134002 Kredit menejeri<br>24134003 Kredit tahlilchisi<br>24134004 Kredit xavflari bo'yicha professional-mutaxassis<br>24134005 Kreditni baholash bo'yicha tahlilchi<br>24139006 Valyuta nazorati bo'yicha professional-mutaxassis |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 24211001 Boshqaruv masalalari bo‘yicha maslahatchi<br>24223003 Xalqaro hamkorlik bo‘yicha bo‘yicha professional-mutaxassis<br>24321003 Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha professional-mutaxassis<br>26311007 Iqtisodiy tahlil va baholar bo‘yicha ekspert<br>26311017 Moliyaviy ishlar bo‘yicha iqtisodchi<br>33120004 Kredit inspektori<br>33220001 Bank agenti<br>**64.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sug‘urtalash va nafaqa jamg‘armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari.**<br>12112007 Markaziy ijro organi birinchi rahbarlarining yordamchilari, maslahatchisi<br>12112008 Markaziy tashkilotlar, muassasalar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | va korxonalar rahbarlarining yordamchilari<br>12222003 Mijozlarga xizmat koʻrsatish boʻyicha boʻlim boshligʻi (mudiri)<br>13460002 Bank operatsiyalarini boshqarish rahbari<br>24112001 Bank hujjatlari ekspeditori<br>25293004 Kiberxavfsizlik siyosati va standartlari boʻyicha professional-mutaxassis<br>**69.20 Buxgalterlik hisobi va audit sohasidagi faoliyat; soliq solish boʻyicha maslahat berish**<br>24111001 Auditor<br>24112002 Buxgalter<br>24112005 Hisob-kitob boʻyicha buxgalter<br>24121003 Moliya boʻyicha professional-mutaxassis<br>26311005 Iqtisodchi.<br>26311017 Moliyaviy ishlar boʻyicha iqtisodchi |
| | **6.3** | Mijozlar bilan oʻzaro munosabatlar oʻrnatish | Vazifalarni belgilashda, xodimlarni ragʻbatlantirishda, | Xizmat sifatini ta'minlash, mijozlarga xizmat koʻrsatish | **64.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan,** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | qoidalari, shikoyat va so‘rovlarni ko‘rib chiqish, iste’molchilar huquqlarini va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlar va ichki qoidalar talablarini bilish, asosiy operatsiyalarni tushunish, jamoa va mijozlar bilan samarali maslahatlashish uchun mahsulot va xizmatlarni taklif qilish, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlarini bilish, hisobotlar, elektron pochtalardan foydalanish tartibini bilish, motivatsiya, ish faoliyatini baholash tartibini bilish bo‘yicha keng integratsiyalashgan bilimlar, jumladan ilmiy asoslar, ilmiy va nazariy muammolarni, shuningdek, eng muhim nazariyalar va usullarni amaliy qo‘llash | o‘qitishda va nazorat qilishda, ma’lumotni yetkazishda, mijozni tinglashda, muzokaralar olib borishda va nizolarni hal qilishda, ish jadvallarini rejalashtirishda, xizmat sifatini kuzatib borishda va qoidalarga rioya qilinishini ta’minlashda, ish yukini ustuvorlashtirishda va boshqarishda, raqamli vositalar bilan ishlashda, yuqori darajadagi xizmatni ta’minlashda va shikoyatlarni oldini olishda turli standartlar va tez o‘zgarib turadigan talablarni hisobga olgan holda yangi yechimlarni ishlab chiqish, faoliyat, usullar va ularning natijalarini baholash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar | standartlariga rioya qilinishini nazorat qilish va ularni o‘z vaqtida javoblar bilan ta’minlash, jamoani boshqarish, yollash, o‘qitish, vazifalarni belgilash va xodimlarning ish faoliyatini baholash, qoidalar va standartlarga rioya qilish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish talablariga va boshqa normativ hujjatlarga rioya qilish, hujjatlar oqimi va hisobotlarni nazorat qilish, jurnallarni yuritish, so‘rovlar bo‘yicha hisobot berish va boshqa bo‘limlarga ma’lumotlarni uzatish, nizolarni, shikoyatlarni yoki operatsion uzilishlarni tezda hal qilish, mijozlar va hamkorlar bilan professional va do‘stona munosabatlarni ta’minlash bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilish va biriktirilgan xodimlarning kasbiy rivojlanishini boshqarish uchun javobgarlik;<br>Ish jarayonidagi faoliyat sohasida qarorlar qabul qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish; | **sug‘urtalash va nafaqa jamg‘armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari.**<br>12112009 Qabulxona boshlig‘i (mudiri)<br><br>**82.20 Axborot-ma’lumotnoma xizmati faoliyati**<br>12222002 Call-markaz rahbari (boshqaruvchisi) |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Murakkab texnik va kasbiy faoliyat va loyihalarni boshqarish, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish va xavfsizlikni ta’minlash, ichki jarayonlarni yaxshilash;<br>Biriktirilgan xodimlarning professional rivojlanishiga rahbarlik qilish va jamoadagi muammolarni hal qilish. | |
| **7** | **7** | Milliy va xalqaro moliyaviy tizim asoslari, makroiqtisodiy siyosat, bank tizimining tuzilishi va xalqaro standartlar (MSFO, IFRS), bank boshqaruvi va korporativ strategik rejalashtirish va resurslar taqsimoti, byudjetlashtirish va moliyaviy rejalashtirish, daromad va xarajatlar balansini tuzish va prognozlash, gʻaznachilik amaliyotlari, likvidlik va pul oqimini boshqarish asoslari, ichki audit va nazorat tizimi, xatar tahlili va auditorlik amaliyoti, buxgalteriya va hisob siyosati, milliy va xalqaro hisob standartlari, qonunchilik va normativ hujjatlar, bank va moliya sohalaridagi asosiy me’yorlar, axborot tizimlari va | Strategik rejalashtirish va tahlil, bank faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish, moliyaviy hisobot tayyorlash, yillik va choraklik hisobotlarni tuzish va tahlil qilish, tavakkalchilikni boshqarish, kredit va bozor xatarlarini baholash va kamaytirish, ichki nazorat va auditni tashkil etish, tekshiruv jarayonlarini muvofiqlashtirish, gʻaznachilik jarayonlarini boshqarish, pul oqimlarini nazorat qilish va optimallashtirish, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish va samarali boshqarish, axborot tizimlaridan foydalanish, komplayens va etika ichki siyosat va regulyator talablariga rioya qilish, nazorat organlari va aksionerlar bilan samarali | Oldindan aytib boʻlmaydigan sharoitlarda strategik boshqaruv jarayonida, bankning barqaror faoliyati va moliyaviy holatini ta’minlashda, moliyaviy hisobotlar aniqligi va ishonchliligini ta’minlashda, ichki nazorat tizimining samaradorligini amalga oshirishda, audit va xavf boshqaruvi jarayonlarini ta’minlashda, axborot maxfiyligini ta’minlashda, qonunchilikka rioya qilishda, ichki va tashqi normativ talablarga amal qilishda, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirishda, islohot va innovatsiya tashabbuslarini tatbiq qilishda, ichki jarayonlarni | **64.11 Markaziy bank faoliyati**<br>**64.19 Pul-kredit vositachiligi**<br>11200006 Boshqaruv (korporatsiya, assotsiatsiya, bank, trest) raisi va oʻrinbosarlari<br>11200007 Bank boshqaruvi raisi<br>11200010 Direktor va oʻrinbosarlari<br>11200023 Korxona bosh direktori (boshligʻi, boshqaruvchisi) va oʻrinbosarlari<br>11200026 Muassasalar, tashkilotlar va korxonalar rahbarlarining maslahatchisi<br>11200046 Vazirlik huzuridagi agentlik |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | raqamli moliya, elektron bank tizimlari va xavfsizlik, korporativ madaniyat va jamoa psixologiyasi, rahbarlik etikasi va ishchi motivatsiyasi faoliyati sohalari yoki turli sohalarga oid oʻzaro bogʻliq yuqori ixtisoslangan bilimlar | aloqa oʻrnatish, innovatsiya tashabbuslari, raqamlashtirish va avtomatlashtirishni joriy etish sohalaridagi ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarda talab qilinadigan muammolarni, shu jumladan strategik muammolarni hal qilish uchun zarur boʻlgan maxsus kasbiy koʻnikmalar | takomillashtirishda mustaqil qaror qabul qilishda hamda jamoa strategik faoliyatini boshqarishda shaxsiy javobgarlik;<br>Har qanday murakkab jarayonlarda mustaqil qarorlar qabul qilish va uning natijalari uchun toʻliq javobgar boʻlish;<br>- Soha oldiga qoʻyilgan maqsadga erishish uchun mehnat jarayonlarini boshqarish va nazorat qilish;<br>- Natijalari uchun javobgarlik;<br>- Mehnat va ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish qobiliyati;<br>- Qoʻyilgan vazifalarga nisbatan ijodiy yondashuv | (qoʻmita, birlashma va boshqa) direktori<br>12111001 Buxgalteriya boʻlimi boshligʻi<br>12111002 Buxgalteriya hisobi va hisoboti boʻlimi boshligʻi (bosh buxgalter)<br>12111003 Byudjetni rejalashtirish boʻyicha rahbar (bosh iqtisodchi)<br>12111004 Filial (bank, moliyaviy xizmatlar va boshqalar) boshqaruvchisi<br>12111005 Gʻaznachilik rahbari<br>12111006 Hisob-kitob va kassa ishlari boʻyicha rahbar<br>12111007 Ichki audit nazorati boʻyicha rahbarlar (bosh auditor)<br>12111011 Moliya-iqtisod boʻlimi boshligʻi (mudiri)<br>12111012 Moliya-iqtisod sohasida departament (boshqarma) direktori (boshligʻi)<br>12111013 Moliya-iqtisod xizmati (qismi) boshligʻi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | 12112002 Ijro apparati va ijro intizomi/nazorati boʻyicha rahbarlar<br>12190006 Bosh ekspert<br>12190009 Bosh inspektor<br>13460013 Shoʻba (sektor) mudiri |
| **8** | **8** | Murakkab gʻoyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur boʻlgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilgʻor innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar | Yangi bilim va yechimlarga olib keladigan loyihalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat natijalarini prognoz qilish, kasbiy va ijtimoiy sohada keng koʻlamli oʻzgarishlarni amalga oshirish, murakkab sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot, ishlanmalar va innovatsiyalar sohasidagi yangi muammolarni aniqlash va yechimlarini topish uchun zarur boʻlgan eng ilgʻor va maxsus koʻnikmalar | Oʻzining va ilmiy jamoaning tadqiqot natijalari, shuningdek, ularning sanoatdagi mamlakat va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy samarasi uchun mas'uliyati;<br>Yirik institutsional tuzilmalar darajasida qarorlar qabul qilish va strategiyani belgilash, murakkab ijtimoiy, sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, yangi va murakkab gʻoyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish, jamiyatning texnik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun strategik qarorlar qabul qilish | |

# 7. Tarmoqning funksional xaritasi



## 8. Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to‘g‘risida ma’lumot

| T/r | Ishlab chiquvchilar to‘g‘risida ma’lumot | |
|---|---|---|
| | **Ish joyi va lavozimi** | **Familiyasi, ismi, otasining ismi** |
| 1. | O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Inson resurslarini boshqarish departamenti HR funksiyalarini bajarish boshqarmasi boshlig‘i | Irisov B.B. |
| 2. | O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Inson resurslarini boshqarish departamenti HR funksiyalarini bajarish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari | Ganiyev R.R. |
| 3. | O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar bosh boshqarmasi Kadrlar bilan ishlash sho‘basi mudiri | Xodjayev A.A. |
| 4. | “Respublika Inkassatsiya xizmati” DUK Xodimlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i | Burxanov J.R. |
| 5. | “Qimmatli qog‘ozlarning Markaziy depozitariysi” AJ Kadrlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassis | Azimova A.B. |
| 6. | “Asaka” ATB Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori o‘rinbosari | Safiyev B.M. |
| 7. | “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori | Raximov N.A. |
| 8. | Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Bank ishi” kafedrasi mudiri, i.f.d., professor | Rustamov M.S. |

Mazkur Tarmoq malaka ramkasi Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashining 26-yanvar 2026-yildagi 1-son yig‘ilishida muhokama qilingan.

Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining 16-yanvar 2026 – yildagi TMR-017 - son xulosasi.

# Bank va mikromoliyaviy faoliyat

## TARMOQ MALAKA RAMKASI

Investitsiyalar, bank va savdo sohalarida
kasbiy malakalarni rivojlantirish boʻyicha
tarmoq kengashi